ICHKI KASALLIKLAR PROPEDEVTIKASI KAFEDRASI TARIHI

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi

Andijon Davlat Tibbiyot Instituti

Ichki kasalliklar propedevtikasi

kafedrasi mudiri,

tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yuldashev Rafikjan Numanovich

Qabul vaqti: xar kuni soat 14-20 dan soat 17-00 gacha

Telefon nomeri: +998916147280

E-mail: yuldashev_1958@mail.ru

ICHKI KASALLIKLAR PROPEDEVTIKASI KAFEDRASINING TARIXI

“Ilm va izlanish bo‘lmagan joyda
xech qanday rivojlanish, yuksalish va umuman,
biror- bir soxaning kelajagi bo‘lmaydi”
Sh.M.Mirziyoyev

Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi 1957-yili Viloyat klinik shifoxonasining 120 ta o‘ringa mo‘ljallangan ichki kasalliklar bo‘limida tashkil qilingan. Unga mudir etib, tibbiyot fanlari nomzodi V. A. Arustamyan tayinlangan.

Kafedrada tibbiyot fanlari nomzodi A.A.Boltaboev, assistentlardan O.G.Morozova, E.N.Konstantinovva N.A.Alimovalar ishlaganlar.

O‘sha paytda Samarqand Davlat tibbiyot instituti dosenti A.Ya.Malyar talabalarga 2 xafta davomida ko‘rgazmali ma’ruzalar o‘qib bergan. Shundan so‘ng, ma’ruzalarni kafedra mudiri, t.f.n. V.A.Arustamyan o‘qiy boshlagan.

1958-1959-yillari kafedrani professor G.M.Efendiev boshqargan. U bir paytning o‘zida fakultativ terapiya kafedrasini xam mudiri xisoblangan.

Зав. каф. Профессор
Сойбель Б. И.

1958-yilning avgust oyidan boshlab kafedraga dosent B.I.Soybel mudir etib tayinlangan. Bu paytda kafedra 60 o‘rinli 1-shaxar shifoxonasida faoliyat ko‘rsatgan. Yildan yilga kafedra a’zolari soni orta boshlagan. Kafedraga dosent Sh.K.Botirov, assistentlardan S.S.Medvedeva, Z.I.Xasanovalar kelib qo‘shilgan.

1961-1972-yillari kafedra shaxardagi temir yo‘l shifoxonasining 60 o‘rinli ichki kasalliklar bo‘limida faoliyat ko‘rsata boshlagan. Shu erda kafedraga assistentlar L.X. Ilyosov, I.A.Ali-Zade, A.D.Skvorsova, G.N.Yushina, S.Yu.Tursunov, Z.S.Velmizovalar ishga qabul qilingan.

Shu yillar davomida kafedrada kardiologiya bo‘yicha keng ko‘lamda ilmiy ishlar olib borilgan. Natijada kafedra mudiri dosent B.I.Soybel doktorlik va assistentlardan E.N.Konstantinov, Z.I.Xasanova, S.Yu.Tursunovlar nomzodlik dissertatsiyalarini ximoya qilganlar.

1972-1975-yillari esa kafedraga professor I.F.Fatxullaev raxbarlik qilgan. Bu paytda kafedra viloyat shifoxonasining 120 o‘rinli ichki kasalliklar bo‘limida joylashgan.

1975-yilda kafedra mudiri etib dosent S.Yu.Tursunov tayinlangan. Kafedrada o‘sha paytda 2 ta dosent, 14 ta assistent, 4 ta klinik ordinator va 3 ta preparator ishlagan.

1968-yildan 1975-yilgacha kafedrani o‘quv ishlari bo‘yicha mas’ul lavozimida dosent Z.I.Xasanova va 1975-yildan 1983-yilgacha esa dosent O.S.Saloxiddinov faoliyat ko‘rsatgan.

Shu yillarda kafedrada o‘quv jarayonini takomillashtirish borasida juda ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, xar bir o‘quv xonalari inson tizimlari (nafas, yurak qon-tomir, buyrak, jigar va x.k.) bo‘yicha bo‘linib, bu xonalar shu tizimlar bo‘yicha kerakli jadval, plakat va asbob-uskunalar, texnik vositalar bilan jixozlangan. Ko‘plab uslubiy qo‘llanmalar yaratilgan, o‘quv-uslubiy anjumanlar muntazam o‘tkazib borilgan.

Ilmiy ishlar “Yurak, qon-tomir tizimining fiziologiya va patologiyasi” rukni ostida bajarila boshlangan. Ilmiy ishlar bajarilishi uchun etarli sharoitlar yaratilgan. Moskva, Leningrad, Kiyev, Novosibirsk, Bishkek kabi yirik shaxarlar kardiolog olimlari bilan xamkorlik qilina boshlagan. Epidemiologik va profilaktik ishlarga asos solingan. Bajarilayotgan ilmiy ishlarga Moskvadagi Kardiologiya Ilmiy Markazi uslubiy markaz bo‘lib xisoblangan.

Узбекистон фан арбоби, профессор. «Эл- юрт хурмати» ордени сохиби кафедра мудири Турсунов Сайфитдин Юнусович

Кафедра профессори О.С.Салохиддинов

1982-yilgacha kafedrada 1 ta doktorlik (S.Yu.Tursunov) va 6 ta nomzodlik (O.S.Saloxiddinov, B.M.Maxmudov, K.J.Xusainov, N.S.Mamasoliev, A.F.Nabieva) dissertatsiyalari ximoya qilingan. 3 ta monografiya, 250 dan ziyod ilmiy maqolalar chop etilgan.

1983-yili professor S.Yu.Tursunov ichki kasalliklar subordinaturasi kafedrasiga mudir etib tayinlanishi munosabati bilan kafedraga dosent O.S.Saloxiddinov raxbarlik qila boshlagan. Shu paytda kafedrada dosentlar

B.M.Maxmudov va G.N.Yushina xamda assistentlardan M.N.Nosirov, R.A.Enileva, I.I.Ismoilov, M.N.Nigmatjonovalar faoliyat ko‘rsatishgan.

Dosent O.S.Saloxiddinov kafedrani 1987-yilning sentyabr oyigacha boshqargan va doktorlik ilmiy ishini davom ettirish uchun katta ilmiy xodim lavozimiga o‘tgan

1987-yildan 1988-yilgacha kafedrani vaqtincha dosent B.M.Maxmudov boshqarib turgan. 1988-yildan esa kafedraga doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli ximoya qilgan dosent N.S.Mamasoliev boshqara boshlagan. 1997-yildan professor N.S.Mamasoliev umumiy amaliyot shifokori tayyorlash kafedrasiga mudir etib tayinlangach, kafedrani yana O‘zbekiston Respublikasi Fan Arbobi, Nyu-York Fanlar Akademiyasining a’zosi, professor, S.Yu.Tursunov boshqarib keldi. Sungi yillarda kafedra professori lavozimida faoliyat kursatib kelayotgan professor S. Yu. Tursunov 2021-yil 9-yanvar kuni vafot etdi.

Uch avlod estafetasi: professor S. Yu.Tursunov, professor N.S.Mamasoliev, dosent R.N. Yuldashev.

2012-yildan boshlab kafedraga tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent R.N.Yuldashev raxbarlik kilib kelmoqda.

Kafedrada 1 nafar professor (O.S.Saloxiddinov), 4 nafar dosent (N.D.Kasimova, S.GArtikova, N.R.Yuldashev, B.K.Dauletboyev), tibbiyot fanlari nomzodlari I.I.Ismoilov Z.M.Niyozov, xamda katta o‘qituvchi Z.V.Yunusova, assistentlar (Primqulova G.N., Isaqova D.Z, Kityan S.A., Valieva Z.S., Ataxanova N.S.,Teshaboyev M.G., Musashayxov U.X., Yusupova M.Sh., Badalbayeva N.M., Qaraboyeva F.U., Xamidov D.A., Maksudov O.M., Toshmatova G.A.,

Abduraxmonov M.G., Xolikova D.S., Ashuraliyeva N.D., Ibragimov B.N., Ganiyeva Z, Tursunov J.X.,), 26 nafar klinik ordinatorlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Kafedrada davolash, pediatriya, stomatologiya, tibbiy profilaktika fakulteti va tibbiy pedagogika ixtisosligi 2-3 bosqich va pediatriya fakultetining 2-4 bosqich talabalari taxsil olmoqdalar.

Kafedra xodimlari o‘quv jarayonini takomillashtirish borasida tinmay izlanib, yangi o‘quv texnologiyalarini o‘quv jarayoniga faol tadbiq etmoqdalar. Xar yili kamida 2-4 tadan yangi o‘quv, va 10 taga yetkazib ukuv-uslubiy ko‘llanmalar yaratilmoqda. Ichki kasalliklar fanidan 2 ta darslik yaratildi.

Kafedra professori, S.Yu.Tursunovning xammualliflari bilan birgalikda yaratgan Ichkki kasalliklar propedevtikasi fanidan darsligi Respublikaning barcha tibbiyot institutlari talabalari uchun kullanmia bulib xizmat qilmokda. O‘quv jarayonida yangi, zamonaviy texnik vositalardan (video ikkilik, kompyuter) keng qo‘llanilmoqda.

Ma’naviyat va ma’rifat soxasida xam kafedra a’zolari izchillik bilan faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Bu borada risolalar, ma’naviyatga oid yuzlab maqolalar chop etdilar. Ma’naviyat kunlarini qiziqarli o‘tishida jonbozlik ko‘rsatmoqdalar. Kafedra professorlari S.Yu.Tursunov va O.S.Soloxiddinovlar tomonidan sungi yillarda 10 ortik ma’naviyat ruknidagi risolalar va sheriy kitoblar nashr etildi. Ma’ruza va amaliy darslarda tarbiyaviy tomoniga katta e’tibor bermoqdalar.

Barkamol avlod tarbiyasi, ilmiy kadrlar tayyorlash kafedra xodimlarining eng asosiy burchlaridan biri bo‘lib kelmokda. Professor S.Yu.Tursunov tomonidan asos solingan markaziy Osiyodagi yagona profilaktik kardiologiya ilmiy maktabida 20 dan ortiq doktorlik, 50 dan ortiq nomzodlik dissertatsiyalar ximoya qilingan. Yillar davomida ilmiy izlanishlar borasida ko‘plab muvaffakiyatlarga erishildi.

Kafedra mudiri R.N. Yuldashev tashabbusi bilan kafedraning bir qator chet ellik olimlari (Ukraina, Rossiya Federatsiyasi, Polsha, Xindiston, Kirgiziston va Janubiy Koreya) bilan ilmiy aloqalar olib borilmoqda, kafedra bazasiga ularning tashriflari tashkil qilinmoqda. Kafedraning bir qator xodimlari ular faoliyat ko‘rsatayotgan markazlarda bo‘lib qaytmoqdalar, onlayn anjumanlari o‘tkazilmoqda. Nufuzli jurnallarda ilmiy maqolalar nashr etilmoqda. Xar yili kafedra xodimlari tomonidan 2-3 ta o‘quv qo‘llanma, monografiya va o‘nlab o‘quv uslubiy qo‘llanmalar tayyorlanib, yangi o‘quv texnologiyalari asosida amaliy mashg‘ulotlar olib borilmoqda.

Kafedrada 7 nafar yosh assistentlar aktual mavzulardi ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.